

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIIY DAVLATCHILIKNING HUQUQIIY ASOSLARI VA IJTIMOIIY DAVLATGA XOS INDEKATORLAR

**O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Davlat
huquqiy fanlar va inson huquqlari” kafedrası o‘qituvchisi, leytenant
Baxtiyorov Faxriyor Akromjon o‘g‘li**

Annotatsiya:

O‘zbekistonda ijtimoiy davlatchilikning huquqiy asoslari asosan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan. O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida tan olinib, davlat oilani to‘laqonli rivojlantirish, fuqarolarning bandligini ta‘minlash, ishsizlikdan himoya qilish va kambag‘allikni qisqartirish kabi ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Konstitutsiyada mehnatni muhofaza qilish, eng kam ish haqini belgilash, ijtimoiy ta‘minot, bepul ta‘lim va tibbiy yordam ko‘rsatish kabi kafolatlar mavjud. Davlat ijtimoiy himoya siyosatini kuchaytiradi, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashga qaratilgan qonunlar va tizimlarni ishlab chiqadi, shuningdek, ijtimoiy jihatdan muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor beradi. Ushbu maqola orqali aynan shu yo‘nalishlar bo‘yicha huquqiy asosga ega bo‘lishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: **Ijtimoiy ta‘minot, ijtimoiy himoya, indikator, suverenitet, prinsiplar, xalq hokimiyatchiligi, davlat organlari, temir daftar**

Kirish: Mamlakatimizda ijtimoiy himoya sohasida berilgan so‘nggi statistik ma‘lumotlarga ko‘ra: Kam ta‘minlangan oilalar uchun bolalar nafaqasi va moddiy yordam 667 308 oilaga berilgan va bu uchun jami 3 milliard so‘m to‘langan. Elektr energiya va tabiiy gazni bazaviy me‘yordan ortiq qilgan iste‘moli uchun kompensatsiyalar 245 243 kishiga taqdim etilgan va jami 40 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan. Homiladorlik va tug‘ish nafaqasi 9 411 kishiga berilgan va jami 24 milliard so‘m to‘langan. Harbiy xizmat, haydovchilik guvohnomasi, o‘quv kurslari va kontrakt to‘lovlari uchun ham moddiy yordam ko‘rsatilgan, masalan, harbiy xizmatga jami 697.3 million so‘m ajratilgan.

2023-yilda O‘zbekistonda pensiya va nafaqa oluvchi shaxslar soni 4 715,7 ming nafarga yetgan; bu 2019-yilga nisbatan 24.3% oshish Demak, ijtimoiy himoya tizimi keng ko‘lamda va turli guruhlarni qamrab olgan holda faoliyat yuritmoqda, jamiyatlardagi eng muhtoj qatlamlarga moddiy yordam ko‘rsatish davom etmoqda. Bugungi kunning mazmun mohiyati insonlarning yashashga bo‘lgan ehtiyoji manfaat va maqsadlari ijtimoiy muhit asosini ijtimoiy muhit samaradorligini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 1-moddasida o‘z aksini topgan O‘zbekiston boshqaruvning Respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik huquqiy ijtimoiy, dunyoviy davlat. Davlatning O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston degan nomlari bir ma‘noni anglatishi mamlakatimizning barcha soha indekatorlari siyosiy rejimga mos ravishda samarali ishlayotganligidan darak beradi. Biz maqolamizda shu indekatorlardan biri bo‘lgan va boshqa yo‘nalishlarga bevosita ta‘sir o‘tkazadigan ijtimoiy sohaga asosiy e‘tiborimizni qaratamiz. O‘zbekiston ijtimoiy davlatdir va bu tamoyil Konstitutsiyada mustahkamlangan. O‘zbekistonning ijtimoiy davlat ekanligini asoslovchi bir qator asoslar mavjud: Davlat bandlikni ta‘minlash, ishsizlikdan himoya qilish, kambag‘allikni qisqartirish kabi ijtimoiy masalalar bo‘yicha majburiyatlarga ega. Fuqarolarga eng kam ish haqidan past bo‘lmagan adolatli haq olish, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam olish huquqlari kafolatlangan. Har bir fuqaro uy-joyga ega bo‘lish, bepul umumiy o‘rta ta‘lim va professional ta‘lim olish, shuningdek, tibbiy yordam olish huquqiga ega. Ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalar uchun maxsus yordam va kafolatlar qonun bilan belgilangan. So‘nggi konstitutsiyaviy o‘zgartirishlar bilan ijtimoiy adolat, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohalarida davlatning majburiyatlari kengaytirildi. Davlat oilaning rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy shart-sharoitlar yaratadi va ijtimoiy tenglikni ta‘minlashga intiladi. Shunday qilib, O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishi konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlangan va amalda ham ijtimoiy siyosat orqali qo‘llab-quvvatlanmoqda. O‘zbekiston ijtimoiy davlat ekanligini asoslovchi yangiliklar asosan yangi Konstitutsiya va undagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Konstitutsiyada mamlakat ijtimoiy davlat sifatida mustahkamlanib, davlatning ijtimoiy adolat, inson huquqlari, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta‘minlash, ishsizlikdan himoya qilish kabi majburiyatlari kengaytirildi.

Shuningdek, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya va uy-joy bilan ta'minlash sohalarida davlatning yangi kafolatlari va majburiyatlari belgilandi.

Yangiliklarning asosiy jihatlari

Konstitutsiyada ijtimoiy davlat tamoyili ilk bora aniq belgilandi, davlat va jamiyatning asosiy burchi insonga e'tibor va g'amxo'rlik ekani qayd etildi. Kambag'allikni qisqartirish, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha davlat o'ziga yangi majburiyatlar oldi, ijtimoiy sohadagi normativlar uch barobarga oshirildi. Ta'lim sohasida davlat kafolatlari kengaytirilib, bepul umumiy o'rta, boshlang'ich professional ta'lim, oliy ta'lim grantlari taqdim etilmoqda. Tibbiy yordam bepul shaklda kafolatlanib, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlarga davlat tomonidan uy-joy berish tizimi kuchaytirildi. "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlash usullari orqali ijtimoiy himoya tizimi yanada samarali amalga oshirilmoqda. Yoshlar, nogironlar, keksalar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Ushbu o'zgarishlar mamlakatda ijtimoiy himoyani kuchaytirish, fuqarolarning hayot sifatini oshirish va tenglikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining amalda mustahkamlanishidan dalolat beradi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasida ijtimoiy davlat tamoyilini asoslovchi va eng e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan bandlar quyidagilardan iborat: Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi. Har kim eng kam oylik maoshidan past bo'lmagan miqdorda adolatli haq olish huquqiga ega. Qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, boquvchisidan mahrum bo'lganda ijtimoiy ta'minot olish huquqi kafolatlangan. Pensiyalar, nafaqalar va ijtimoiy yordam miqdorlari eng kam iste'mol xarajatlaridan kam bo'lishi mumkin emas. Soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'siq bo'lmasligi kerak. Har kim uy-joyli bo'lish huquqiga ega. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Fuqarolarga tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi bepul ko'rsatiladi. Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta'minlash tartibi qonun bilan belgilanadi. Yollanib ishlovchilarga har yilgi haq to'lanadigan mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi

kafolatlanadi. Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi. Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Ushbu bandlar ijtimoiy davlatning asosiy konstitutsiyaviy tamoyillari bo'lib, fuqarolarning eng kam daromaddan pastga tushmasligini, ijtimoiy himoyani, ta'lim va tibbiyot sohalarida davlatning kafolatlarini o'z ichiga oladi. Bu bandlarga e'tibor qaratish O'zbekistonda ijtimoiy davlat sifatida barqarorlik va fuqaro manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. 2025-yil 30-yanvarda imzolangan Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to'g'risidagi 17-sonli farmonning mazmun mohiyati demokratik o'zgarishlar natijasida ijtimoiy tizimda imkoniyatlar rolini oshirishga yo'l ochayotganligidan darak beradi. "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida har bir fuqaroni o'zi va farzandlari kelajagi uchun mas'uliyat bilan yondashishga undaydigan va salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratish hamda ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish ko'lamini kengaytirish orqali oilalarning mehnat qilish imkoniyatini cheklovchi sabablarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan farmondagi mazmun mohiyat aynan shu yangiliklarga qaratilgan. Xorijiy davlatlarda ijtimoiy tushuncha, ya'ni ijtimoiy davlat modeli ko'plab mamlakatlarda mavjud bo'lib, fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini himoya qilishga qaratilgan. Bunday davlatlarda ijtimoiy adolat, teng imkoniyatlar va muhtojlarga yordam berish asosiy tamoyil hisoblanadi. Masalan, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, Germaniya, Shveysariya, AQSh kabi davlatlarda ijtimoiy davlat modeli qo'llanilmoqda. Bu davlatlarda ish haqi, bandlik, sog'liqni saqlash, ta'lim va kambag'allikni qisqartirish kabi ijtimoiy himoya choralari keng joriy qilingan. Ijtimoiy davlatda hech kim e'tibordan chetda qolmaydi va muammolari bilan yolg'iz tashlab qo'yilmaydi. Shuningdek, Yevropa va Amerika mamlakatlarida ijtimoiy ish va ijtimoiy xizmatlar tizimlari rivojlangan bo'lib, bu sohada ijtimoiy farovonlik va himoya asosiy maqsad sifatida belgilangan. Demak, ijtimoiy tushuncha va ijtimoiy davlat modeli asosan G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika va boshqa rivojlangan davlatlarda keng tarqalgan. Skandinaviya modeli bilan kontinent modelining asosiy farqlari quyidagilardan iborat: Ijtimoiy siyosat va davlatning roli. Skandinaviya

modeli ijtimoiy davlat tamoyillariga tayanib, keng ko‘lamli ijtimoiy himoya va tenglikka katta ahamiyat beradi. Bu modelda davlat soliqlar orqali katta daromad yig‘ib, ijtimoiy xizmatlar (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ish bilan ta‘minlash) sifatli va erkin taqdim etiladi. Kontinent modeli esa (odatda Germaniya, Fransiya kabi davlatlarga xos) ijtimoiy himoya tizimi mavjud bo‘lsa-da, soliqlar Skandinaviya ga nisbatan kamroq va nodavlat sektor roli yanada katta. Ushbu modelda bozor tamoyillari va ijtimoiy hamkorlik muhim. Soliq va ijtimoiy xarajatlar. Skandinaviya mamlakatlarida soliq stavkalari yuqori bo‘lib, ijtimoiy xarajatlarga ko‘proq ajratiladi. Kontinent modelida soliqlar nisbatan pastroq va ijtimoiy dasturlar kamroq «generoz» (ehsonkor) hisoblanadi. Ijtimoiy tenglik: Skandinaviya modeli iqtisodiy tenglikni yuqori darajada ta‘minlashga intiladi. Kontinent modeli esa asosan ijtimoiy sug‘urta va kafolatlariga tayanib, ijtimoiy qatlamlar mavjudligini qisman saqlaydi. Bozor va davlat munosabatlari: Skandinaviya modelida davlat va bozor o‘rtasida muvozanat kuchli bo‘lib, davlat iqtisodiyotni va ijtimoiy siyosatni faol boshqaradi. Kontinent modelida davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlik asosiy yo‘nalish hisoblanadi, erkin bozor tamoyillari ko‘proq ustunlik qiladi.

Umuman olganda, Skandinaviya modeli «ijtimoiy demokratiya» va keng ijtimoiy tenglikni ta‘minlaydigan tizim sifatida farqlanadi, kontinent modeli esa barqaror ijtimoiy himoya bilan bozor iqtisodiyotini uyg‘unlashtiradi.

Yakuniy qism: Xorij tajribasi ijtimoiy yo‘nalish uchun samarali bo‘lishi mumkin lekin biz mamlakatimizda aholining ehtiyoj manfaat, maqsadlaridan kelib chiqib ijtimoiy yo‘nalishga asosiy e‘tiborimizni qaratayotganimiz tahsinga sazovordir.

Xulosa: O‘zbekiston ijtimoiy davlat modeli inson qadrini ulug‘lash va har bir fuqaroning munosib yashash sharoitini yaratishni asosiy maqsad qilib olgan davlat tizimidir. Bu modelda davlat ijtimoiy adolat tamoyillari asosida aholining ijtimoiy tengligini ta‘minlash, ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, kambag‘allikni qisqartirish va muhtojlarga samarali yordam ko‘rsatishni o‘z zimmasiga oladi. Konstitutsiyaga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan O‘zbekistonda “ijtimoiy davlat” tamoyili yanada mustahkamlandi, davlatning ijtimoiy majburiyatlari sezilarli darajada oshirildi. Ushbu tizimda fuqarolarning

bandligini ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish, eng kam oylikdan past bo'lmagan adolatli ish haqi belgilash, pensiyalar va ijtimoiy yordamlarni ta'minlash kabi asosiy yo'nalishlar mavjud. Shuningdek, davlat bepul ta'lim, tibbiy yordam va uy-joy bilan ta'minlashni kafolatlaydi, oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Yangi O'zbekiston ijtimoiy adolat va inson huquqlari himoyasiga asoslangan, fuqarolariga g'amxo'rlik qiladigan davlat sifatida shakllanish yo'lida faol ish olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusupov, A. (2021). "Yangi O'zbekiston – ijtimoiy davlat". [Ilmi maqola]
2. O'zbekiston Konstitutsiyasi va shunga asoslangan normativ hujjatlar.
3. O'ralova, U. (sana aniqlanmagan). "Ijtimoiy davlat tushunchasi, mazmun va mohiyati va tarixiy rivojlanishi". [Elektron manbaa]
4. Wikipedia. "O'zbekiston adabiyoti". (2006).
5. Xolmirzaev, S. (2023). "Shukur Xolmirzaev ijodida ijtimoiy masalalarning ifodalanishi".
6. Abdukarimova, R. A. (2023). "Yangi O'zbekiston - ijtimoiy davlat". [Elektrum maqola]
7. Respublika va keng jamoatchilik uchun rasmiy va ilmiy maqolalar.
8. O'zbekiston qonunlari va konstitutsiyaviy hujjatlar.
9. Yuz.uz. "O'zbekiston Respublikasining fan va texnika, adabiyot, san'at va memorchilik sohasidagi davlat mukofotlarini berish to'g'risida" (2022).
10. Uzbekistan.travel. "O'zbek adabiyoti" (2023).